



«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

Buyuk shoir va mutafakkir tavalludining
581 yilligiga bag'ishlangan xalqaro
ilmiy-nazariy anjuman
materiallari

2022-yil, 5-fevral

«ALISHER NAVOI AND THE XXI CENTURY»

The Materials of the International
Scientific-Theoretical Conference on the Theme

2022 year 5 february

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

**«ALISHER NAVOIY VA
XXI ASR»**

**mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman
materiallari**

Toshkent – 2022

UO‘K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (5O‘)

A 51

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Sirojiddin Sayyid (O‘zbekiston), Ramiz Asker (Ozarbayjon), Muslihiddin Muhiddinov (O‘zbekiston), Ibrohim Haqqulov (O‘zbekiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Olimjon Davlatov (O‘zbekiston), Badriddin Maqsudov (Tojikiston), Tanju Seyhan (Turkiya), Aftondil Erkinov (O‘zbekiston), Karomat Mullaxo‘jayeva (O‘zbekiston), Mark Toutant (Fransiya), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Abdulloh Ro‘yin (Afg‘oniston).

Ushbu to‘plamda “Alisher Navoiy va XXI” asr mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumaniga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To‘plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni va bugungi ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog‘liq holda matnshunoslik masalalari, tilshunoslik muammolari haqida so‘z yuritiladi. O‘zbek navoiyshunosligining bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**The Ministry of Higher and Secondary Education of the
Republic of Uzbekistan**

**Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navo'i**

**The Materials of the International Scientific-Theoretical
Conference on the Theme**

**«ALISHER NAVOI AND THE
XXI CENTURY»**

Tashkent – 2022

Chief editor:
Shuhrat Sirojiddinov
Doctor of Philology, Professor

Editorial Board

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Sirojiddin Sayyid (Uzbekistan), Ramiz Asker (Azerbaijan), Muslihiddin Muhiddinov (Uzbekistan), Ibrahim Haqqulov (Uzbekistan), Almaz Ulvi (Azerbaijan), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Olimjon Davlatov (Uzbekistan), Badriddin Maksudov (Tajikistan), Tanju Seyhan (Turkey), Aftondil Erkinov (Uzbekistan), Karomat Mullakhodjaeva (Uzbekistan), Mark Toutant (France), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan), Abdullah Ruyin (Afghanistan).

This is a collection of articles which were sent to the International scientific theoretical conference on the theme "Alisher Navoi and the XXI Century". The collection includes the papers considering the role and importance of literary-scientific heritage of Alisher Navoi in our classical literature as well as linguistic and textual issues of his works. It presents a clear image of the current state and prospects of Uzbek researches on Navoi. The book is intended for philologists, scientific researchers, the students of master's and bachelor's degrees, and a wide audience.

The orthography of authors' and their views of works may differ from the view point of the editorship.

duch keladi. Mazkur soʻzlarni izohlash, tushuntirib berish har bir bilimli kishining zimmasidagi yuksak masʼuliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zunnunov A., Esonov. J. Maktabda adabiyot oʻqitish metodikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1985.
2. Yoʻldoshev Q., Yoʻldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. –Toshkent: Kamalak. 2016.
3. Toʻxliyev B. Mumtoz asarlarni sharhlab oʻrganish . – Toshkent, 2013.
4. Mirqosimova M. Hozirgi oʻzbek adabiyoti namunalarini sharhlab oʻrganish. Uslubiy qoʻllanma. – Toshkent, 2015.
5. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot oʻqitish metodikas. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
6. Tursunova M. Madrasalar taʼlimida adabiyot oʻqitish usullari. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2017.
7. Qodirov V. Umum taʼlim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini oʻqitishning ilmiy-metodik asoslari. – Namangan, 2019.

ALISHER NAVOIY AFORIZMLARI QIYOSI

Dilnoza Tashpulatova

TTA Oʻzbek va xorijiy tillar kafedrası

Sitora Turaboyeva

TTA Oʻzbek va xorijiy tillar kafedrası

“Biz Alisher Navoiyni mutafakkir shoir sifatida bilamiz. Mutafakkir soʻzining maʼnosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish qobiliyatiga ega kishi demakdir”. (Ochilov, 2006, 3). Bu qobiliyat hammaga ham nasib etmaydi. Binobarin, dunyoda juda oz yozuvchi va shoir bu nomga loyiq koʻrilgan. Navoiy qoldirgan merosni hikmat marjonlari toʻla dengizga oʻxshatish mumkin.

Aforizm - bu tushuncha uzoq vaqtdan beri maʼlum. Miloddan avvalgi V asrda Qadimgi Yunon olimi Gippokrat, tibbiyotda aforizmlar haqida risola yozgan. Biror bir hodisaning aynan oʻzini emas, balki biror bir adabiy yoʻl orqali, chiroyli sheʼriy ifodalanishi bu aforizmdir.

Buyuk mutaffakkir va shoir Alisher Navoiyning aforizmlari (hikmatli soʻzlari) faqat oʻzbek xalqininggina emas, balki bir necha xalqlar va kulturalarning donishmandligini oʻziga yiqqan boʻlib, bizning zamonimiz uchun dam juda zoʻr tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Shuning uchun Navoiy aforizmlarining qqoʻrganilishi hozirgi zamon talabi boʻlmoqda. Shu oʻrinda Navoiy aforizmlarini boshqa tillar bilan qiyoslab oʻrganish muhim masala hisoblanadi.

Qiyosiy-chogʻishtirma usullar - qiyoslash orqali adabiy hodisalarning umumiy va xos tomonlarini aniqlash, poetika, adabiy aloqalar va adabiy taʼsir masalalarini tahlil qila olishi; Til tarixi va nazariyasi toʻgʻrisida keng bilimni egallay olish, dunyo tillarining umumiy va xususiy qonuniyatlari haqida tasavvurga ega boʻlishi, tilshunoslik tarixi, tilshunoslik maktablari, zamonaviy tilshunoslik masalalarini va tilshunoslik metodlarini bilishi.

Navoiy asarlarining hali hozircha toʻla-toʻkis tahlil etib chiqilmagani sababli, ulardagi aforizmlarning hammasini bu toʻplamga yigʻish imkoni boʻlmadi. Shu sababli

hozirgi kunda Navoiy aforizmlarining to‘la to‘plamini chiqarishni yaqin kelajakning vazifasi qilib qo‘yish bilan, hozirgacha aniqlangan aforizmlarni to‘xtatmasdan, kichikroq bo‘lsa ham bir to‘plam qilib chiqarish asosiy vazifa bo‘lib turibdi. Shunday bo‘lsa ham aytish mumkinki, bu taqdim etilayotgan „Aforizmlar“ ga Navoiy hikmatli so‘zlarining katta bir qismi kirgandir. Navoiyning deyarlik hamma eng muhim asarlari -Xamsa“, „Mahbubul-qulub“, „Chor devon“, „Nazmul-javohir“, „Lisonut-tayr“ va boshqalar qarab chiqilib, ularda uchragan hikmatli so‘zlar terilib olingandir.

“Layli va Majnun” dostonida shoir shunday yozadi:

Insong‘a erur kamol matlub,
Andin dag‘i dardu hol matlub.
Har kimgaki ulum bo‘lsa vosil,
Gar dardiyu holi yo‘q, ne hosil?

Komillikni istagan inson dard va holni ham talab etmog‘i, o‘rganmog‘i lozim. Agar inson bir necha ilmlarga ega bo‘lsayu, unda dard va hol bo‘lmasa, bu ilm egasiga qanday foyda berishi mumkin?

Xo‘sh, bu o‘rinda dard va holdan murod ne?

Professor Najmiddin Komilov bu ikki so‘zning o‘ndan ortiq ma‘nolarini beradilar. Ishq, zavq, shafqat, to‘g‘rilik kabilar bu ma‘nolar ichidadir.

Bizningcha, Alisher Navoiy bu o‘rinda ixlosni ham nazarda tutmoqdalar. Muborak manbalarda ixlosning ahamiyati aniq va o‘ta ta‘sirli tarzda bayon etilgan. Ya‘ni, dunyoda ilmiga ixlos bilan amal qilganlarning najotga erishmoqlari marhamat qilingan.

Alisher Navoiyga ko‘ra inson uchun umidni yo‘qotish katta yo‘qotishdir. Inchunun, hikmatlarining birida “Ey do‘stlar, menga hamma narsadan umidingni uz, voz kech deyishingiz mumkin, ammo zinhor Yaratguvchidan umidingni uz demangiz” mazmunida bunday deydi:

Ahbob, dengizki, xonu mondan tama’ uz,
Ne xonu mon, kavnu makondan tama’ uz.
Ne kavnu makon, jonu jahondan tama’ uz,
Lekin demangiz, meniki, Ondin tama’ uz.

Ushbu hikmatda “Ollohning rahmatidan umid uzmang” oyati karimasining mazmuni singdirilgan.

Navoiy asarlarini nashrga tayyorlashda asosiy masalalardan biri—tekstni to‘g‘ri aniqlash va yuriginalga hechqancha o‘zgarish kiritmaslik masalasidir. Aforizmlarni biz yangi orfografiya bilan berganimiz holda shu printipni to‘la saqladik. Lekin ayrim o‘rinlardagina ba‘zi cheklanishlar bo‘ldi. Masalan: ko‘ngul so‘zi orfografiya qoidasiga ko‘ra, ko‘ngil ravishida yozilishi kerak bo‘lgani holda bu so‘z gul so‘zi bilan ham qofiya bo‘lib kelgan o‘rinda qofiya talabiga muvofiq „ko‘ngul“ ravishida berildi. Yoki lug‘atlarimizda aniq shoh, achchiq, kattiq, goh ravishlarida yozilishi qat‘iy bo‘lgach so‘zlar vazn talab qilgan o‘rinlarda shah, achig‘, qagig‘, gah ravishlarida ham berildi. Suv so‘zi vazn talab qilgan joyda su ravishida ishlatildi. Hozirgi jonli tilimizda o‘ldirmoq ravishida ishlatilishi qat‘iyilashgan so‘zlar Navoiy asarlarida o‘ltirmoq ravishida ham uchratiladiki, bu xususiyatlarni ham originalning o‘zicha berishga diqqat qilindi.

Mashhur tarixnavis Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida, Amur Temur vafot etishidan oldin yuqoridagi oyatni aytib jon taslim qilganligi qayd etiladi.

Shoirning zamondoshi muarrix Xondamir “Makorim-ul-ahloq” kitobida quyidagi voqeani bayon etadi:

Alisher Navoiy bandalik vazifasini ado etgach, jamoat bilan suhbatlashar, hol-ahvol so‘rar, bemor va ehtiyojmandlarning ko‘nglini ko‘tarar edi. Nimagadir bir kuni tarki odat qilib, qaergadir shoshilib borib keldilar. Bu holga odatlanmagan jamoa qiziqib so‘raganlarida hazrat Navoiy shunday izoh berdilar:

“Ikki yelkamga salom berganda ko‘rdimki ustimda bir chumoli turibdi. Bu chumoli tahorat olganim joydan chiqqanini bildim va bir jonzotni oshiyonidan judo qilmoqning gunohini, yukini o‘ylab uni o‘z joyiga qo‘yib keldim”.

Nafaqat insonga, bir chumoliga ozor yetkazishga jasorat qilolmagan Navoiyning ushbu satrlarini bitmog‘i tabiiydir:

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa obod aylagay.

Ya‘ni, kim ko‘ngli o‘ksik bir insonni xursand qilsa, yiqilgan Ka‘bani qaytadan qurgan, ta‘mirlagan kabi savobga noil bo‘ladi, demoqda shoirimiz.

Ota-onaga hurmat mavzusi har shoirda bo‘lgani kabi, Navoiy hikmatlarining asosiy mavzularidandir. Shoir, farzand otasi uchun kerak bo‘lsa boshini, onasi uchun jismini fido etmog‘i, kunduzi nur sochganlari tufayli ularning birini oy, birini quyosh deb bilmog‘i lozimligini ta‘kidlaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.
Tun-kuningg‘a aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Quyidagi to‘rtlik esa shoirning “Arbain” asaridan:

Onalarning oyog‘i ostidadir,
Ravzai jannatu jinon bog‘i.
Ravza bog‘in visolin istar ersang,
Bo‘l onaning oyog‘i tuprog‘i.

Hayotning juda qisqaligiga doir bir necha hikmatlar bor. Bu haqiqatni Navoiy shunday go‘zal ifodalaydiki, buni o‘qigan o‘quvchi mutlaqo ta‘sirlanadi va tezroq xayrli ishlar qilmoqqa g‘ayrat etadi:

Xazon sipohig‘a ey bog‘bon, emas mone,
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

Ya‘ni, ey bog‘bon, sen bog‘ingda yetishtirganing daraxtlarni naqadar qo‘risang, hatto devorlari ustini tikan bilan o‘rasang hamki, xazon otlig‘ lashkarga monelik qilolmaysan.

Mavzuga oid yana bir necha hikmat:

Umruga hech e‘timod yo‘qdur, ey ko‘ngul,
Oy va yilni necha mast kechirursan, hamon oyil.

“Vaqt jafo xanjari ila umr tolalarini kesadi. Shunday ekan, unga ko‘ngil bog‘lamoq mumkin emasligini fahmla”.

“Qachongacha umringni aysh-ishrat va uyqu bilan o‘tkazasan. G‘ururga mast bo‘lib ko‘zingni zulmat pardasi ila o‘raysan? Eng yaxshisi qorong‘u kechalarni ixlosli toat bilan, uning nuri ila boradigan joyingni yoritsang-chi”.

Ushbu bayt esa “Har narsaning qazosi bor ammo fursatlarning qazosi bo‘lmas” yoxud “hozirgi vaqtingning qadrini bil” so‘zlarini eslatadi:

Moziyu mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,

Ne uchunkim, dam bu damdir, dam bu damdir, dam bu dam.

Mustaqillik bizga ko‘plab imkoniyatlar qatori Alisher Navoiyni anglash, risoladagidek tushunish baxtini berdi, deya olamiz.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.

Ushbu satrlar mustaqillikdan avvalgi paytlari, taassufki, hayotdagi boda tarzida sharhlangan va o‘quvchilarga taqdim etilgan edi.

Bu o‘rinda bodadan murod ishq ekani sir emas. Zero Navoiyga ko‘ra Ishaq insonning javharidir va bu ne‘matdan mahrum inson eng baxtsiz insondir:

Bo‘lmasa ishq ikki jahon bo‘lmasin,

Ikki jahon demakim, jon bo‘lmasin.

Ishqsiz ul tanki oning joni yo‘q,

Husnni netsun kishikim, oni yo‘q.

“Ishaq tole quyoshidir, qayg‘uli dillar tikanzori u tufayli gulshan bo‘lur. Ishaq porlagan to‘lin oydin, zulmat ko‘ngillar kechasi u tufayli nurafshondir”.

Al hosil, Navoiy hikmatlari inson qalbini ma‘nan boyituvchi hayot atalmish sayohatida unga yo‘l ko‘rsatuvchi sodiq, samimiy yo‘ldoshdir.

Kimki ko‘ngilni qattiq so‘z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko‘ngiida til nayzasining jarohati bitmas; u jarohatga hech narsa malhamlik qilmas.

Agar bir ko‘ngilda til nayzasining jarohati bordir, faqat yaxshi so‘z va shirin til unga malham va rohatdir. Muloyim so‘z — vahshiylarni ulfatga aylantiradi; sehrigar — ohang bilan afsun o‘qib, ilonni inidan chiqaradi.

Tilga ixtiyorsiz — elga e‘tiborsiz. Ko‘p, bemaza so‘zlaydigan ezma — kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o‘xshaydi. Tili yomon odam — xalq ko‘nglini jarohatlaydi, o‘z boshiga ham ofat yetkazadi. Nodoning vahshiylarcha baqirmog‘i — eshakning bemahal hangramog‘i. Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do‘stona so‘z aytadi; ko‘ngilga tushishi mumkin bo‘lgan yuz g‘am — uning so‘zi bilan daf bo‘ladi. So‘zda har qanday yaxshilikning imkoni bor, shuning uchun ham aytadilarki; «nafasning joni bor...»

O‘zi xunuk, gapi bema‘ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o‘xshaydi. Baxt bag‘ishlovchi toza ruh manbayi ham til; yomonliklar keltiruvchi nahs yulduzining chiqar joyi ham til. Tilini tiyolgan odam — donishmand oqil; so‘zga erk bergan odam — beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo‘lsa yaxshi; til bilan dil bir bo‘lsa yana yaxshi. Til bilan dil — insondagi eng yaxshi a‘zoldir. Bo‘stonda — gulsafsar, gulg‘uncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Odam — tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til — shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma‘qul bo‘lib chiqsa — tilning ofatidir.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillar bo‘yicha yetuk mutaxassislarni tayyorlashda talabalarni tilning nazariy masalalari bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi, zero filolog-mutaxassis va til ta‘limi o‘qituvchisi tilshunoslik fanining nazariy asoslari bilan tanish bo‘lishi, til ilmining qonun-qoidalarini umumlashtira olishi kerak bo‘ladi. Navoiy aforizmlarini qiyoslab o‘rganishda zamonaviy tahlil talablariga e‘tibor qaratish lozim. Albatta Navoiy aforizmlarining boshqa tillardagi ma‘nosini ko‘rsata olishda

qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Lekin bularni o‘rganishda talabalarga bosqichma bosqich o‘quv topshiriqlarining berib borilishi orqali ularda aforizmlar haqida tushuncha paydo bo‘lishiga yordam beradi hamda ularning ahloqiy ahamiyatiga e’tibor qaratib, ularga amal qilishga intiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergash Ochilov. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent. 2006, 3-bet
2. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. Toshkent, 2009, 52-bet.
3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent, 1997.
4. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009.
5. Andrew Radford, Martin Atkinson, David Britain, Harald Clahsen, Andrew Spencer. Linguistics. An introduction. – New York, Cambridge University Press, 2009. – 430 p.

**ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA PEYZAJ
VA QAHRAMON RUHIYATI TASVIRIDAGI MUTANOSIBLIK**

*Charos SHOMUROTOVA
ToshDO‘TAU*

Hozirgi o‘zbek romanchiligida Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani alohida o‘ringa ega bo‘ldi, deyish mumkin. Bu asar buyuk mutafakkir, so‘z mulkining sultoni, XIV-XV asrlarda turkiy tilni yuksaklarga ko‘targan hazrat Alisher Navoiy obrazi yangicha talqin etilgani bilan alohida ajralib turadi. Asardagi qahramonlar xarakteri, voqealar rivoji va peyzaj tasviri bir-biriga o‘zaro uzviy bog‘liq ekani yozuvchining mahoratidan darak beradi.

Asarning har yangi boshlanmasida tabiat tasviri berib borilar ekan, o‘quvchi tabiat manzarasiga qarab qahramonlar hayotida yaxshi yoki yomon hodisalar yuz berishi mumkinligini oldindan his etadi. Alisher Navoiyning bolalik yillari tasvirlangan “Havzi mohiyonda bir tantana” deb boshlanadigan qismida peyzaj tasviri, jumladan, mana bunday suvratlangan: *“Hiriyning istehkom devorlari uzra rango-rang matolar hilpirar, bayroqlar ilingan, karnay-surnay sadolari kelar, devor usti-yu osti sipoh va odamlarga to‘lgan edi. Ayni chog‘ da janubdan bir karvon Hiriyga kirib borayotgani ko‘rinardi... Bugungi g‘ala-g‘ovur kunda-shunda shovqin emas, raiyatning shodlik va faxr-u g‘urur to‘la xitoblari tufayli edi.”* [Sulton 2021:8]. Bayram og‘ushidagi Hirot tasviri bilan bog‘liq bu lavha ham aynan peyzaj tasviri bo‘la oladi. Negaki, “Peyzaj nafaqat tabiatni, balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. Shu ma‘noda, masalan, biron-bir xiyobon yoki shahar ko‘chasining tasviri ham ham peyzaj, holbuki, ular tabiat tasviri emas, joy tasviridir” [Quronov 2010: 220].

Yuqorida keltirilgan parchalardan ko‘rishimiz mumkinki, Hirot ahli benihoya hurmatga sazovor bir insonni kutib olgani yig‘ilgan. Bu yig‘inning asl maqsadi nima ekanligi keyingi sahifa mutolaasi jarayonida oydinlashadi: *“Xuroson mamolikida ulug‘ bayram. Shohrux Mirzo bundan ikki yil avval Allohning uyiga kivsa, ya‘ni yopinchiq yopishga izn olgach, nafis va pishiq matolardan tayyorlatib, Shayx Nuriddin va mavlono Shamsiddin birla Ka‘ba ustiga yoptirgan edi. Bugun osha karvon Makkadan yetib keldi”* [Sulton 2021:9]. Yuqorida keltirilgan peyzaj tasvirlari yozuvchi o‘z

MUNDARIJA

I SHO‘BA. ALISHER NAVOIYNING ILMIY MEROSI VA MATNSHUNOSLIK PANEL I. SCIENTIFIC LEGACY OF ALISHER NAVOI‘I AND TEXTOLOGY

Shuhrat SIROJIDDINOV. Alisher Navoiy o‘z ustozlari haqida	5
Ramiz ƏSKƏR (Azərbaycan). Yubiley kitablari	10
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Navoiy g‘azallariga Munis muxammaslarining matniy xususiyatlari	13
Labib Said MOHAMMAD OLIM, Nadim MOHAMMAD HUMOYUN (Afg‘oniston). Alisher Navoiyning Xurosondagi izlari va adabiy an‘anasining davomi	24
Aftondil ERKINOV. Temuriylar davri durdonasi (“Guliston”ning o‘zbek tilidagi yangi tarjimasi)	30
Emek ÜŞENMEZ. Türkmenistanmili el yazmalar kütüphanesindeki Ali Şîr Nevâî yazmalari haqqinda	35
Ализода САЙИДХОДЖА. Рукописные произведений Алишира Наваи в фонде восточного рукописей национальной Академии Науки Республики Таджикистан и их характерной особенности	50
Gulnoz XALLIYEVA. Germaniyada Alisher Navoiy qo‘lyozmalari	54
Sherxon QORAYEV. Amir Ahmad Hojibek Vafoiy adabiy bazmlari va Alisher Navoiy	57
Shermuhammad AMONOV. Ahmad Tabibiyning Navoiy g‘azallariga bog‘lagan musaddaslari	61
Rustamjon JABBOROV. Sulton Ya‘qubning Navoiy tilga olgan bir ruboiysi xususida	64
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiy “Terma devon”lari tarkibidagi g‘azallarning matniy tadqiqi	72
Sadat MONESA SAYED (Afg‘oniston). Abdulhakim Shar‘iy Juzjoniy – adabiyotshunos olim	96
Yaldo NURIY (Afg‘oniston). Navoiyning Afg‘onistonda o‘rganilishi va asarlarining nashr etilishi	100
II SHO‘BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSI VA TARJIMAI HOLI PANEL II. ALISHER NAVOI‘S BIOGRAPHY AND LITERARY HERITAGE	
Muslihiddin MUHIDDINOV. «Saddi Iskandariy» dostoni hamdlaridagi hikmatlar	107
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy an‘analarining Abdulla Oripov she‘riyatidagi poetik sintezi	112
Shar‘iy JUZJONIY. Alisher Navoiy oshiq bo‘lganmi?	126

Almaz Ulvi Binnətova (Azərbaycan). Əlişir Nəvainin son dastanında tarixin nağili	131
Shavkat HAYITOV. Mahbuba MUHAMMADOVA. “Farhod va Shirin”ning bir manbasi haqida	140
Dr. Amir NEMATİ LİMA'I (Eron). From Khosrow to Farhad with Shirin's poem (According to the poem of Shirin and Farhad, composed by Amir Alishir Nava'i)	145
Akramjon DEHQONOV. Alisher Navoiy's artistic skill in depicting Khosraw Parvez	150
Dr. Amir Timur RAFIEI (Eron). Cultural and literary position of Amir Alishir Navai during the Timurid era	156
Burobiya RAJABOVA. Navoiy ijodida ritorik murojaat san'ati (“Farhod va Shirin” dostoni misolida)	159
Nodir G'AFFOROV. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarida islomiy qoidalar tahlili	166
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” dostoni muqaddimasiga oid ayrim mulohazalar	172
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy ijodida Arastu obrazi talqinlari	176
Ozoda TOJIBOYEVA . “Hayrat ul-abror”da dalillash san'ati	182
Orzigul HAMROYEVA. Navoiyning mahjub baytlari (“Saddi Iskandariy” dostoni asosida)	186
Zulayho RAHMONOVA. Alisher Navoiy ijodiyotida tavba talqinlari	192
Ilyos ISMOILOV. “Saddi Iskandariy” dostonida fol motivi va uning transformatsiyasi	196
Mexrinisa XOLMURODOVA. Alisher Navoiy “Xamsa”sida adolatli davlat va ota-o'g'il munosabatlari talqini	200
Muyiba OTAMURATOVA. Alisher Navoiy ijodida umuminsoniy g'oyalar tarannumi	206
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY LIRIKASINI O'RGANISH MASALALARI	
PANEL III. THE PROBLEMS OF STUDYING LYRIC HERITAGE OF NAVOI	
Ibrohim HAQQUL. Navoiy shaxsi va ijodiy imkoniyatlari	211
Oqilxon IBROHIMOV. Hazrat Navoiy ijodi Yunus Rajabiy talqinida	219
Boqijon TO'XLIYEV. G'azal sharhi – ma'rifiy mashg'ulotlar manbai sifatida	224
Nodira AFOQOVA. Hamd g'azallarda sabab – oqibat kategoriyasi	229
Olimjon DAVLATOV. “G'aroyib us-sig'ar”da obraz darajasiga ko'tarilgan timsollar (“Shox” radifli g'azal misolida)	234
Ma'rifat RAJABOVA. Qalb pokligi Navoiy talqinida	237
Farida KARIMOVA. Debochalarda ijtimoiy-siyosiy va adabiy hayotga doir qaydlar	240
Nazora BEKOVA. "Devoni Foni" va uning Alisher Navoiy ijodiyotidagi	243

mavqei	
Tozagul MATYOQUBOVA. Nafis tuyg‘ular zalvori	249
Sohiba UMAROVA. Navoiy lirikasida iqtibos	255
Durdona ZOHIDOVA. Navoiy lirikasida visol orzusining poetik talqini	257
Salomat MATKARIMOVA. Alisher Navoiy “Bog‘i nazmi shakkaristonidan bir gulqand” sharhi	261
Laylo JO‘RAYEVA. Maqomlarda Alisher Navoiy g‘azallarining qo‘llanilishi	267
Afifa G‘ANIYEVA. Alisher Navoiyning “Bois” radifli orifona g‘azallarida sababiyat va oqibat	273
Qamariddin QANET. “G‘aroyib us-sig‘ar” g‘azallarida qo‘llanilgan qofiyalar badiiyati va muraddaf g‘azallar	282
Mina KARWANY (Afg‘oniston). Lutfiy va Navoiy she‘riyatida husni ta‘lil san‘ati	294
Jamila ISOR (Afg‘oniston). Navoiy va Bobur shi‘riyatida irsoli masal va tamsil san‘atlari	299
IV SHO‘BA. ALISHER NAVOIY: AN‘ANA VA YANGILANISH, ZAMONAVIY ADABIYOTDA BUYUK SHOIR OBRAZI TALQINI PANEL IV. THE PLACE, TRADITION AND RENEWAL OF ALISHER NAVOI'S LITERARY HERITAGE	
Fuzuliy BAYAT (Azərbaycan). Образ Навои в узбекском и среднеазиатском фольклоре	306
Qosimboy MAMUROV, Nargiza TILAKOVA. Navoiy international conference 2022	319
Nizomiddin MURODIY (Xo‘jand). Alisher Navoiyning g‘arbiy Xitoydagi izdoshlari	325
Nusratullo JUMAXO‘JA. "Alisher Navoiy" romanida shoir shaxsiyati va ijtimoiy-adabiy qiyofasining badiiy ifodasi	330
Ilhom G‘ANIYEV. Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoiy ijodida taqdir muammosi	334
Baxtiyor FAYZULLOYEV (Xo‘jand). Nodira ijodida Navoiy an‘analari	339
Islomjon YOQUBOV, Go‘zal ATABOYEVA. “Navoiy va rassom Abulxayr” roman dilogiyasining shakliy-uslubiy o‘ziga xosligi	344
Zilola AMONOVA. Nasimiy va Navoiy ijodida tavhid talqini	350
Elchin IBROHIMOV (Azərbaycan). Alishir Nevai'nin türk dünyasında öğrenilmesi Muhakemetü'l lugateyn eserinin türkçe'ye katkıları	354
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy xorijlik olimlar nigohida (Turkiyalik olima professor doktor Funda Toprakning “Tasavvufiy va adabiy tomonlari bilan Alisher Navoiy” tadqiqoti haqida)	360
Ahmet AKALIN (Turkiya). Türk Devletleri Teşkilatı “Ali Şir Nevai Uluslararası Ödülü”	363

Barno HASANOVA. Jadidlarning Navoiy shaxsi va ijodiga munosabati masalasi	367
Gulbahor ASHUROVA. Muhammad Alining "Navoiy va Boyqaro" dramasi Navoiy obrazining badiiy talqini	372
Nazmiya MUXITDINOVA. Muhammad G'oziy ijodida Navoiy uslubiga izdoshlik ko'rinishlari	380
Olmosxon ABDURAHMONOVA. Adabiy an'ana va ijodiy ta'sir	384
Furqat TO'XTAMURODOV. Muhsiniyning Navoiyga tatabbu'si va tahrir masalasi	387
Dilfuza AVAZOVA. Alisher Navoiy, Furqat va Abdulla Oripov ijodida Ka'batulloh mavzusining badiiy talqini	390
Yulduz ABDULHAKIMOVA. Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonlarida hushdan ketish va tush motivlarining o'rni	395
Sevinchoy YOQUBOVA. Fitrat "Farhod va Shirin" dostoni tadqiqotchisi	401
Abdul Haq RAHIMI. Afg'oniston o'zbek she'riyatida Navoiy an'analari	405
Feruza SULTONQULOVA. Alisher Navoiy ijodining zamonaviy o'zbek she'riyatiga ta'siri (Usmon Azim ijodi misolida)	414
Bekposhsha RAHIMOVA. Navoiy dahosiga izdoshlik	418
Jumagul SUVONOVA. Alisher Navoiy ijodida arba'in-hadis va XXI asr an'alar poetikasi	423
Muhabbat RAJABALIYEVA. Poyon Ravshanov – navoiyshunos	430
V SHO'BA. ALISHER NAVOIYNING LINGVISTIK MEROSI VA SHOIR IJODINI O'QITISH MUAMMOLARI	
PANEL V. ALISHER NAVOI'S LINGUISTIC HERITAGE AND PROBLEMS OF TEACHING THE POET'S WORK	
Prof. Dr. Hikmet KORAŞ (Turkiya). Alishir Nevayi'de yazi dili şuur	435
Baxtiyor ABDUSHUKUROV. Alisher Navoiy asarlaridagi etnonimlar	446
Zulxumor XOLMANOVA. Alisher Navoiyning omonimlarga oid mulohazalari	453
Dilnavoz YUSUPOVA. "Farhod va Shirin" dostonini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish	460
Barno ABDURAHMONOVA. Maktab adabiy ta'limda Navoiy hayoti va ijodini o'rgatish masalalari	471
Malohat AHMEDOVA. Alisher Navoiy asarlaridan foydalanib mustaqil va o'quv topshiriqlarini pragmatik tuzish usullari	475
Aliboy QAHRAMONOV, Davlatyor JUMASHEV. Navoiy asarlarining til xususiyatlari	480
Azizbek JANGABAYEV. Navoiy asarlarining qoraqalpoqcha tarjimalari tilining ma'no stilistik xususiyatlari	486

TEZISLAR
TILSHUNOSLIK

Roʻzmetova Nigora. Alisher Navoiy hikmatlarida oilaga oid atamalarning qoʻllanishi	491
Tamikayeva Dilafroʻz. Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qora soʻzi orqali ifodalangan frazeologizmlarning qoʻllanilishi	494
Tillabayeva Zilola. Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlari va shevalarning qoʻllanilishi yuzasidan mulohazalar	495
Xoʻjaniyozova Shahnoza. Alisher Navoiyning manoqib asarlar matnidagi sanskritcha va moʻgʻulcha oʻzlashmalar	497
ADABIYOTSHUNOSLIK	
Ahmedova Shoira. Alisher Navoiy buxorolik ijodkorlar haqida	500
Abdujalilova Diyora. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" va Yahyobey Toshlijalining "Gulshan ul-anvor" dostonlaridagi maqolat va hikoyatlar qiyosi	501
Abdumannapova Shohsanam. Aruz – sharif fan (Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" hamda Sayfiy Buxoriyning "Aruzi Sayfiy" (Henri Blochmann tarjimasini) misolida)	505
Alimov Rasul. "Mahbub ul-qulub" asarida janrlar adabiyoti.	508
Anorqulova Ozoda. Navoiy ijodida "Ota" konseptiga bogʻliq tushunchalar izohi	511
Abduvaliyeva Zarina. Alisher Navoiy gʻazallarida muvozana sanʼati	513
Abduxalilova Rushana. Alisher Navoiy ijodida ustozlar zikri	515
Axrorova Zufnunabegim. "Tazkirat ul-avliyo" va "Nasoyim ul-muhabbat" da Robiya Adaviya zikri	518
Axmedova Maloxat. Alisher Navoiy asarlaridan foydalanib mustaqil va oʻquv topshiriqlarini pragmatik tuzishusullari	520
Babanazarova Zulfizar. "Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida qofiya va vazn munosabati"	524
Bekova Nazora, Sayidova Feruza. "Devoni foniy" va uning Alisher Navoiy ijodiyotidagi mavqei	526
Tuxliyeva Dilfuza. Ontologik tahlil metodi haqida	528
Murodova Gavharoy. "Majolis un-nafois"dagi Temuriy shahzodalar va badiiy ijodkorlar	530
Ishonxanova Iroda. Alisher Navoiy lirik asarlarini oʻrganishga innovatsion yondashuv	533
Jumayeva Dilnoza. Abdulla Oripovning Navoiyga ehtiromi	536
Jabborova Maqsadxon. Alisher Navoiy ijodida shaxs kamoloti gʻoyasining badiiy ifodasi	538
Sodiqov Mirjalol. "Majolis un-nafois"ning birinchi majlisida keltirilgan parchalarda matn va sheʼriy oʻlchov munosabati umumiy xulosasi	542
Mulloqulova Zebiniso. "Saddi Iskandariy" dostoni nasriy bayonlarining qiyosiy tahlili	545

Mirzahakimova Dilobar. Shermuhammad Munis ijodida Alisher Navoiy an'analari	547
Ruzmetov Shahzodbek. Alisher Navoiy ijodining Usmonli turk adabiyotiga ta'siri (Lamii Chelebiy misolida)	550
Sanaqulov Ulug'bek. Alisher Navoiyning "Navodir ush-shabob" devonida Layli obrazi talqini	553
Safarova Hilola. Bir g'azal tahlili...	556
Saidakbarova Muqaddas. "To nafs-u havo qasri baraftod o'lmas ..."	559
To'raqulova Mahliyo. Sharhlab o'qitish va uning o'ziga xos jihatlari	561
Tashpulatova Dilnoza. Turaboyeva Sitora. Alisher Navoiy aforizmlari qiyosi	565
Shomurotova Charos. Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida peyzaj va qahramon ruhiyati tasviridagi mutanosiblik	569
Shukurova Sabohat. Kichik lirik janrlarda shaxs va jamiyat muammolari talqini	571
Sobirova Muzayyana. Navoiy saboqlari	575
Sabitova T. Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida ertak motivlari	577
Fayzullayeva Sevara. Navoiy mahoratining Avaz O'tar ijodiy kamolotidagi o'rni	581
Zohid Muhammad Zohir. "Boburnoma"da Alisher Navoiy ta'rifi	584
Kozimova Zumriniso. Alisher Navoiy asarlarida qo'g'irchoqbozlik san'atiga oid terminlar	586